



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “29” aprel

BUYRUQ № 69

Toshkent sh.

**Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi
ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 29- noyabrdagi “Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 51- son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 26- yanvardagi “Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1- son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2024- yil “29” apreldagi
69- son buyrug‘iga ilova

Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi
ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizom

“Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” (keyingi o‘rinlarda – uslubiy nizom) axborot infratuzilmasi sohasidagi statistik hisobni yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, respublikada aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (keyingi o‘rinlarda – AKT) holati hamda rivojlanishi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarning shakllantirilishi tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o‘rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy nizomning maqsadi aloqa va AKT statistikasi ko‘rsatkichlari tizimini xalqaro darajada taqqoslanishini ta’minlashdan iborat.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda aloqa va AKT sohasida statistik kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, rasmiy statistik axborotni shakllantirishda foydalaniladigan axborot manbalari, tasniflar, asosiy tushunchalar, atamalar va ularni aniqlash, ayrim statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash, rasmiy statistik ma’lumotlarni tarqatish tartiblari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ushbu uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma’lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

2. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va AKT sohasida turli hajmdagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z faoliyatini amalga

oshiradilar. Aloqa va AKT statistikasi o‘zaro bog‘langan statistik kuzatuvlar hamda ma‘muriy ma‘lumotlar tizimi bilan ifodalanib, ularning har biri o‘z mavzusi va statistik kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga egadir.

3. Statistik kuzatuvlar dasturi va statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasini qonunchilik hujjatlari talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

2- bob. Asosiy tushunchalar, atamalar va ularning ta’riflari

4. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

abonent – telekommunikatsiyalar operatori yoki provayderi bilan tuzilgan shartnomaga asosan telekommunikatsiyalar xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

abonent qurilmasi – abonent mulki bo‘lgan yoki unga vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berilgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘lanadigan, telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilingan signallarni hosil qilish, o‘zgartirish, qayta ishlash uchun mo‘ljallangan texnik vosita;

simsiz keng polosali ulanish - W-CDMA, HSDPA, CDMA2000 1xEV-DO, CDMA 2000 1xEV-DV, UMTS va boshqalar kabi simsiz keng polosali ulanish texnologiyalaridan foydalangan holda bir yoki ikki yo‘nalishda kamida 256 kbit/s tezlikda ma‘lumotlar tarmoqlariga kirish bilan uyali mobil telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish;

vab-sayt – bu manzil bilan belgilanadigan, egasi bo‘lgan va vab-sahifalardan iborat Internet tarmog‘idagi joy. Agar tashkilot internet tarmog‘ida o‘zining kamida bir sahifasiga ega bo‘lib, u muntazam ravishda (kamida olti oyda bir marta) yangilanib va e‘lon qilib turilsa – statistika kuzatuv maqsadlari uchun tashkilot vab-saytga ega deb hisoblanadi. Shu bilan birga, tashkilot sahifasiga har qanday Internet foydalanuvchisi kirish imkoni bo‘lgan alohida manzili mavjud bo‘ladi;

internet-provayder – tijorat asosida Internetdan foydalanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborot resurslari, axboro texnologiyalari va axborot tizimlaridan foydalangan holda axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – axborotni (ma'lumotlar, matnlar, tasvirlar va tovushlarni) yig'ish, saqlash, qayta ishlash, qidirish, uzatish va taqdim etish uchun mikroelektronika vositalaridan foydalanadigan texnologiyalar;

axborot resursi – axborot tizimi tarkibida axborot, ma'lumotlar banki, elektron shakldagi ma'lumotlar bazasi;

axborot tizimi – axborotni yig'ish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkonini beruvchi axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining tashkiliy jihatdan tartibga solingan to'plami;

kommutatsiya tarmog'ining kanali bu – telekommunikatsiya signallarining o'tish yo'llarini hosil qiluvchi, kommutatsiya stansiyalari va uzellari yordamida ketma-ket ulangan kanallar va liniyalar bilan hosil qilingan, uning uchlariga abonent qurilmalari (terminallari)ni xabarning manbadan oluvchiga (oluvchilarga) uzatilishini ta'minlovchi texnik vositalar va tarqatish muhiti majmuasidir. Tarmoq turiga qarab telekommunikatsiyalar kanali: telefon, telegraf, ma'lumotlarni uzatish kanali bo'lishi mumkin. Hududiy aloqasi bo'yicha kommutatsiya tarmog'i kanallari xalqaro, shaharlararo, mintaqaviy, mahalliy kanallarga bo'linadi;

mahalliy tarmoq (MT) – bir yoki bir nechta yaqin atrofdagi binolar ichida bir yoki bir nechta avtonom yuqori tezlikda raqamli ma'lumotlar uzatish kanallari bilan birlashtirilgan kompyuter va periferiya uskunalari guruhi bo'lib, bunda umumiy aloqa vositalaridan foydalanilmaydi. Bir kompyuterni ishlab chiqarish yoki periferiya uskunalari bilan ulanishi – mahalliy tarmoq bo'lib hisoblanmaydi;

mahalliy telefon aloqasi – bitta aholi punkti yoki ma'muriy tuman doirasida joylashgan foydalanuvchilar o'rtasidagi telefon bog'lanish.

telekommunikatsiyalar operatori (ma'lumotlar uzatish tarmog'i operatori) – mulkchilik yoki boshqa mulkiy huquqlar bo'yicha telekommunikatsiya tarmog'iga (ma'lumotlar uzatish tarmog'iga) ega bo'lgan, uning ishlashini, rivojlanishini ta'minlaydigan va telekommunikatsiya (ma'lumotlar uzatish tarmoqlari) xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

ma'lumotlarni uzatish – ma'lumotlarni keyingi qayta ishlash uchun telekommunikatsiyalar vositalari yordamida signallar ko'rinishida bir punktdan boshqa punktga ko'chirish;

internet xizmatlaridan foydalanuvchilar – Internetga kirish xizmatlarining iste'molchisi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

pochta aloqasi – pochta, kuryer va pochta jo‘natmalarini jo‘natish va yetkazib berishni ta‘minlovchi texnik va transport vositalarining yagona ishlab chiqarish-texnologik kompleksi bo‘lgan aloqa turi;

telekommunikatsiya xizmatlari provayderi (provayder) – operator tarmoqlari orqali foydalanuvchilarga tijorat asosida telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

radioaloqa, radio va televizion eshittirish – radio va televideniye dasturlarini efirga uzatish, telefon – telegraf xabarlarini hamda raqamli axborotni uzatish uchun radiokanallarni taqdim etish;

aloqa – aholi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat organlarining pochta, telefon, telegraf, radio va boshqa turdagi axborotlarni uzatish va qabul qilish hamda jo‘natmalarni yetkazib berishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlovchi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalari tarkibiy qismi;

internet tarmog‘i – yagona manzil va nomlar makonidan foydalaniladigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan, yagona TCP/IP protokoliga muvofiq ishlaydigan ko‘plab tarmoqlardan iborat global xalqaro tarmoq;

mobil aloqa tarmog‘i – texnik vositalar majmui (kommutator va radiotexnika, abonent qurilmalari, ulash liniyalari, inshootlar va boshqalar), ular yordamida abonentlarga mobil aloqa xizmatlari (telefon, ma‘lumotlarni uzatish va boshqalar) taqdim etiladi. Mobil tarmoqlarga uyali, magistral, mahalliy-magistral, radial-zona aloqa tarmoqlari kiradi;

ma‘lumotlarni uzatish tarmog‘i – ma‘lumotlar uzatilishini ta‘minlash maqsadida ma‘lum nuqtalar o‘rtasida telekommunikatsiyalarni tashkil etish uchun maxsus tuzilgan telekommunikatsiyalar uzellari va kanallarining majmui;

aloqa vositalari – yoki pochta jo‘natmalari xabarlarini shakllantirish, qayta ishlash, uzatish va qabul qilish uchun foydalaniladigan texnik vositalar. Barcha aloqa vositalari belgilangan standartlarga, me‘yorlarga, texnik talablarga muvofiqligi uchun majburiy tekshirilishi (sertifikatlanishi) kerak. Mamlakatda aloqa vositalari umumiy va idoraviy foydalanishdagi aloqa vositalariga bo‘linadi.

aloqa statistikasi – aloqa tashkilotlari va korxonalari faoliyatini, tarmoqlar va aloqa vositalarining holatini o‘rganuvchi statistik tarmoq;

telefon apparati – nutqni uzatish va qabul qilish uchun mo‘ljallangan oxirgi abonent telefon qurilmasi;

ruxsat etilgan keng polosali ulanish - kabelli modem, raqamli abonent liniyasi, optik tolali va boshqa qo‘zg‘almas keng polosali texnologiyalari (masalan,

keng polosali sun'iy yo'ldosh Interneti, WiMAX simsiz lokal tarmoq va boshqalar) yordamida bir yoki ikki yo'nalishda kamida 256 kbit/s tezlikda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlariga ulanish;

elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni aniqlash imkonini beruvchi elektron hujjatning boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan ma'lumot;

elektron tijorat – axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotib olish va sotish;

elektron pochta – “Elektron pochta qutilarida” oraliq birikmaga ega bo'lgan telekommunikatsiya kanallari orqali kompyuter texnikasi orqali tayyorlangan yoki qayta ishlangan ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish;

elektr aloqasi (elektr aloqa) – simli, radio, optik va boshqa elektromagnit tizimlardagi belgilar, signallar, yozma matn, tasvirlar, tovushlarni uzatish yoki qabul qilish. Telefon, telegraf, faksimil aloqa, ma'lumotlarni uzatish va boshqa turdagi hujjatli xabarlarni (shu jumladan, kompyuterlar o'rtasida o'zaro almashinuvni), shuningdek, televizion, ovozli va boshqa turdagi radio va simli eshittirishlarni ta'minlovchi tarmoqlar va vositalarni o'z ichiga oladi;

elektron raqamli imzo (ERI) – elektron hujjatdagi imzo, ERI yopiq kalitidan foydalangan holda mazkur elektron hujjat axborotining maxsus konvertatsiyasi natijasida olingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatda axborotning buzilishi yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini aniqlash imkonini beradi;

3- bob. Ma'lumotlar qamrovi, qamrov darajasi

5. Aloqa va AKT statistikasi tarmoqlari asosida telekommunikatsiya infratuzilmasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasiga ajratiladi.

6. Quyidagilar aloqa va AKT statistikasi bo'yicha statistik kuzatuvlar obyektlari bo'lib hisoblanadi:

“O'zstandart” agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2 tahrir) J seksiyasining 58, 59, 60, 61, 62, 63 kodlari bilan tasniflanuvchi aloqa va AKT sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi (asosiy va ikkinchi darajali) alohida balansga ega yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari;

aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi ish bilan band qilgan shaxslar.

7. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bo'yicha statistik kuzatuvlar birliklarining yig'indisini shakllantirish Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlari asosida har yili va har chorakda statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

8. Tanlov mezonlari bo'lib: aloqa va AKT xizmatlari turlari, yuridik shaxslarning tashkiliy–huquqiy shakllari, yuridik shaxsning turlari hisoblanadi.

9. Aloqa va AKT sohasida statistik kuzatuvlar respondentlari bo'lib, yuridik shaxslar, ularning alohida balansiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va ushbu faoliyatda xizmat ko'rsatuvchi o'zini o'zi ish bilan band qilgan shaxslar tushuniladi.

10. Aloqa va AKT xizmatlari hajmi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar davriyligi har chorakda, yakuniy ma'lumotlar – yilda bir marta shakllantiriladi.

4- bob. Statistik kuzatuvlarning tashkiliy shakli

11. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati ustidan statistik kuzatuvlar quyidagi shakllar asosida amalga oshiriladi:

respondentlar tomonidan belgilangan tartibda statistika organlariga taqdim etiladigan statistik hisobotlar va tanlanma kuzatuvlar;

idoraviy statistik kuzatuvlar;

ma'muriy ma'lumotlar.

5- bob. Statistika kuzatuvlari instrumentlari va dasturi

12. Statistika va idoraviy hisobotlarning quyidagi shakllari statistik kuzatuvlar o'tkazishning vositasi hisoblanadi:

yillik davriylikda taqdim etish:

1 aloqa "Aloqa vositalari va xizmatlari to'g'risida hisobot";

1 akt shakli "Axborotlashtirish vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida hisobot";

1 kb (akt) (1-kb shakliga ilova) "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'g'risida hisobot";

1 kb "Mikrofirma va kichik korxonalarning hisoboti";

1 notijorat "Notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot";

1 nnt "Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot";

1 akt (Internet) shakli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘g‘risida hisobot”; (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

13. Rasmiy statistika ma’lumotlarini shakllantirishda foydalaniladigan ma’muriy ma’lumotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining axborot infratuzilmasi bo‘yicha ma’muriy statistik ma’lumotlari.

14. Respondentlar tomonidan statistik va idoraviy hisobot shakllari buxgalteriya hisobi ma’lumotlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan dastlabki hisob va boshqa hujjatlar asosida to‘ldiriladi.

15. Statistik hisobot yuridik shaxslar, alohida balansga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari tomonidan elektron raqamli imzodan foydalangan holda Estat elektron shaklda statistik hisobotlarni to‘plashning avtomatlashtirilgan tizimi orqali Internet tarmog‘idan elektron va qog‘oz shaklida taqdim etiladi.

Idoraviy hisobotlar yuridik shaxslar, alohida balansga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari tomonidan elektron yoki qog‘oz shaklida davlat idoraviy hisobot shakllari blanklarida ko‘rsatilgan manzillarga taqdim etiladi.

16. Aloqa va AKT statistikasi bo‘yicha ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi kesimida shakllantiriladi. Shu bilan birga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari turlari bo‘yicha guruhlanadi.

6- bob. Alohida statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash tartibi

17. Axborot – kommunikatsiya infratuzilmasi statistikasi bo‘yicha:

100 kishiga mo‘ljallangan telefon liniyalari soni umumiy foydalanishdagi elektraloqa tarmog‘ining telefon liniyalari sonini respublika doimiy aholisini o‘rtacha yillik soniga bo‘lish yo‘li bilan hisobot davridan keyingi yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra hisoblab chiqiladi;

100 aholiga mo‘ljallangan uyali mobil elektr aloqa abonentlari soni mobil aloqa operatori bilan ovozli uzatish xizmatini ko‘rsatish uchun shartnoma tuzgan abonentlar sonini hisobotdan keyingi yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, respublikamiz doimiy aholisining o‘rtacha yillik soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblab chiqiladi;

aholini mobil elektr aloqa xizmatlari bilan qamrab olish (foizlarda) hisobot yilidan keyingi yilning 1- yanvar holatiga respublika aholisiga uyali mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati ta'minlangan hududda yashovchi doimiy aholisi o'rtacha yillik sonini taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi.

xonadonlarda aholining telefon apparatlari bilan ta'minlanishi doimiy aholi sonining o'rtacha soniga nisbatan telefon apparatlari sonining nisbati sifatida hisoblanadi;

bir Internet foydalanuvchisiga tashqi shluzning o'tkazish qobiliyati Internet tarmog'iga (bit/s) tashqi kanallarning umumiy tarmoqli kengligini Internet tarmog'i foydalanuvchilari soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi;

har 100 kishiga to'g'ri keladigan Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni hisobot yilidan keyingi yilning 1- yanvar holatiga ko'ra Internet tarmog'iga ulangan abonentlar sonini respublika doimiy aholisining o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi;

har 100 kishiga to'g'ri keladigan keng polosali qo'zg'almas ulanish abonentlari soni hisobot yilidan keyingi yilning 1- yanvar holatiga ko'ra Internet tarmog'iga qo'zg'almas keng polosali ulanish abonentlari umumiy sonini respublika doimiy aholisining o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

har 100 kishiga to'g'ri keladigan Internet tarmog'iga chiqish imkoniga ega bo'lgan ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalangan uyali aloqa abonentlari soni hisobot yilidan keyingi yilning 1- yanvar holatiga ko'ra Internet tarmog'iga chiqish imkoniga ega bo'lgan ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalangan uyali aloqa abonentlari umumiy sonini respublika doimiy aholisining o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi;

akt bo'yicha tashkilotlarning xarajatlari AKTni ishlab chiqish, sotib olish, amalga oshirish va ulardan foydalanish bo'yicha kapital va joriy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, AKTni ishlab chiqish yoki joriy etish jarayoni qanday bosqichda amalga oshirilayotgani muhim emas: texnik vositalar o'rnatilganda, dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan, xodimlar ushbu axborot texnologiyasidan o'zlarining funktsional vazifalarini bajarish uchun yoki oraliq bosqichda, masalan, ba'zi texnik va standart dasturiy vositalar sotib olingan, ammo hali o'rnatilmagan yoki amaliy dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular hali foydalanishga topshirilmagan;

Tashkilotning ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga bo'lgan xarajatlari o'z tashkilotlari (ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ichki joriy xarajatlari) va tashkilotning uchinchi tomon tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha

amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish xarajatlari (tashkilotning tashqi xarajatlari, shu jumladan ijro etuvchi tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning qiymati).

Internet tarmog'idan foydalanuvchi tashkilotlarning ulanish turlari bo'yicha ulushi (kommutatsiyalanuvchi, statsionar keng polosali, simsiz, simsiz keng polosali) (foizda) internet tarmog'idan foydalanuvchi tijorat tashkilotlari sonini internetga ulanish imkonining ma'lum bir turiga (kommutatsiyalanuvchi, statsionar keng polosali, simsiz, simsiz keng polosali) ega bo'lgan korxonalarning umumiy soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Internet tarmog'idan foydalanish maqsadlari bo'yicha internetdan foydalanadigan tashkilotlarning ulushi (axborotni qidirish va joylashtirish, IP-protokol orqali telefoniya foydalanish, elektron ma'lumotlar bazalaridan, elektron kutubxonalardan pulli asosda foydalanishga obuna bo'lish, boshqa axborot xizmatlarini olish, axborot xizmatlarini ko'rsatish, davlat organlari (tashkilotlari) faoliyati to'g'risida axborot olish, davlat organlari (tashkilotlari)dan shakl blankalarini olish, davlat organlaridan (tashkilotlaridan) davlat axborot, soliq deklaratsiyalari va boshqa hujjatlarni taqdim etish, statistika kuzatuvlari, idoraviy hisobotlar shakllarini taqdim etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni elektron tarzda ro'yxatdan o'tkazish, tovarlarni davlat xaridi uchun elektron auksionlarda ishtirok etish) (foizda) yuqorida sanab o'tilgan maqsadlardan biri uchun internetdan foydalanadigan tijorat tashkilotlari sonini tijorat tashkilotlarining umumiy soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Veb-saytga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarning ulushi – bu har qanday Internet foydalanuvchisi kirishi mumkin bo'lgan alohida veb-sayt manzilga (yoki Internetdagi o'z sahifasiga) ega bo'lgan yuridik shaxslar sonining e'lon qilinadigan va muntazam ravishda (kamida olti oyda bir marta) ma'lumotlarini yangilab turuvchi faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarning umumiy soniga (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) nisbati.

Shaxsiy kompyuteri bo'lgan yuridik shaxslarning ulushi – shaxsiy kompyuteri bo'lgan yuridik shaxslarning (shu jumladan, kompyuterlar (statsionar, noutbuklar, netbuklar va planshetlar) balansidagi tashkilotlar balansida bo'lgan, ijaraga olingan, foydalanish uchun, tasarruf etgan, beg'araz kelib tushgan, shuningdek, boshqa shartlarda ishlab chiqarish uchun olingan yuridik shaxslarning umumiy soniga (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) nisbati.

Mahalliy kompyuter tarmog'iga ulangan yuridik shaxslarning ulushi mahalliy kompyuter tarmog'iga ulangan yuridik shaxslar sonining faoliyat

yuritayotgan yuridik shaxslarning umumiy soniga (dehqon va fermer xo‘jaliklari bundan mustasno) nisbati hisoblanadi.

7- bob. Ma’lumotlar sifatini nazorat qilish

18. Respondentlar tomonidan elektron hujjat shaklida Internet tarmog‘i orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda Estat elektron shaklda statistik hisobotlarni to‘plashning avtomatlashtirilgan tizimi orqali taqdim etiladigan dastlabki statistik ma’lumotlarning sifatini nazorat qilish va istisno hollarda qog‘ozda dasturiy vositalardan foydalangan holda arifmetik va mantiqiy nazorat orqali amalga oshiriladi.

Hisobot elektron hujjat shaklida taqdim etilganda, nazoratning zarur formulalari elektron raqamli imzodan foydalangan holda Estat elektron shaklida statistik hisobotlarni yig‘ishning avtomatlashtirilgan tizimida joylashtiriladigan shakllar tartibiga kiritilgan.

Xatolar aniqlanganda, respondentlarga ishonchli asosiy statistikani taqdim etishni ta’minlash uchun so‘rovlar beriladi.

Idoraviy hisobot va ma’muriy ma’lumotlar shakllarining nisbatan to‘liqligi, aniqligi va ishonchliligini tekshirish arifmetik va mantiqiy nazorat orqali ham amalga oshiriladi.

8- bob. Rasmiy statistik ma’lumotlarni tarqatish

19. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlari quyidagi tartibda shakllantiriladi va tarqatiladi:

davriy statistika nashrlari: statistika byulleteni (chop etish muddati – har chorakda hisobot davridan keyingi 40- kuni, yillik – may oyida);

“O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari” statistika to‘plami yilda bir marta taqdim etiladi. Chop etish muddati – oktabr;

statistika ma’lumotlari to‘plamidagi bo‘limlar: “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami” (chop etish muddati – avgust), “O‘zbekiston raqamlarda” (chop etish muddati – sentabr), “O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi” (chop etish muddati – sentabr) “O‘zbekistonda transport va aloqa” (chop etish muddati – oktabr), “Yillik statistik to‘plam” (chop etish muddati – dekabr).

Bundan tashqari, rasmiy statistika ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy veb-saytida (<http://stat.uz/>) jadvallar ko'rinishida shakllantiriladi va e'lon qilinadi.

Rasmiy statistika ma'lumotlari foydalanuvchilarga yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga asosan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi va "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq taqdim etiladi.

9- bob. Yakuniy qoidalar

20. Uslubiy hujjatni ishlab chiqish jarayonida aloqa va AKT sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining normativ – huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro statistik tashkilotlar, MDH Statistika qo'mitasining tavsiyalari hamda Milliy hisoblar tizimidagi tavsiflardan foydalanilgan.

21. Mazkur uslubiy nizom axborot infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida statistika organlari, shuningdek, manfaatdor vazirlik va idoralar xodimlari tomonidan foydalanilishi uchun mo'ljallangan.

22. Amaldagi uslubiyat asosida hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlardan statistik maqsadlarda respublikada aloqa va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi holatini aniqlash uchun axborot manbai sifatida foydalanish mumkin.

23. Xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar sud-huquqiy nizolarni hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitmlari va boshqa maqsadlar to'g'risida qaror qabul qilish uchun mo'ljallanmagan.

24. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"gi qonuni // <https://www.lex.uz/>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Pochta aloqasi to'g'risida"gi qonuni // <https://www.lex.uz/>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonuni // <https://www.lex.uz/>.
4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni // <https://www.lex.uz/>.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi // <https://www.lex.uz/>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19- fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://www.lex.uz/>.
7. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020- yil 30- iyundagi "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 208- MX-sonli buyrug'i. <https://mitc.uz/ru/>.
8. O'zbekiston Respublikasining telekommunikatsiya tarmog'ining davlat standarti. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining ("O'zstandart" agentligi) 2018- yil 18- yanvardagi 05-921- son qarori bilan tasdiqlangan va kuchga kiritilgan atamalar va ta'riflar // <https://mitc.uz/>.
9. Milliy hisoblar tizimi – 2008 / CES, XVJ, OECD, BMT, JB/Nyu–York, 2009 (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>).
10. 2009 axborot iqtisodiyoti statistikasini ishlab chiqarish bo'yicha qo'llanma (qayta ko'rib chiqilgan nashr). // BMT (<https://unctad.org>) Nyu–York va Jeneva, 2014.
11. Barcha iqtisodiy faoliyatning xalqaro sanoat standart tasnifi (to'rtinchi qayta ko'rib chiqilgan variant). // BMT (<https://unstats.un.org>), Nyu–York, 2009.
12. "Telekommunikatsiya faoliyati statistikasi bo'yicha uslubiy nizom", Belstat. 2017 // <https://www.belstat.gov.by/>.
13. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi bo'yicha uslubiy nizom", Belstat. 2017 // <https://www.belstat.gov.by/>.
14. "Tarmoqlar bo'yicha metodologiyani takomillashtirish" Rosstat. <https://rosstat.gov.ru/>.
15. "Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi metodikasi", Kazstat, 2016. // www.stat.gov.kz.

Приложение
к приказу Агентства
статистики при Президенте
Республики Узбекистан
от « 29 » апреля 2024 г. № 69

Методика по формированию показателей статистики связи
и информационно-коммуникационных технологий

